Demak, yuqoridagilardan kelib chiqqan xolda, nutq o‘rinliligini quyidagi turlarga bo‘lish mumkin:

1. Uslubiy o‘rinlilik
2. Kontekstual o‘rinlilik
3. Vaziyatga ko‘ra o‘rinlilik
4. Shaxsiy-psixologik o‘rinlilik.

5. Nutqning boyligi va rang barangligi

Nutqning boyligi deganda, unda baxo beruvchi so‘z va iboralarning ishlatilishi tushuniladi. Baxo beruvchi so‘zlar: badiiy tasvir vositalari, iboralar, maqol va matallar, xikmatli so‘zlar, badiiy asarlardan keltiriladigan parchalar kabilardir.

Nutqning boyligi deganda, dastlabki fikr shundan iboratki, nutq maydonida turli tuman ma’nolarni anglatuvchi til birliklarining qanchalik ko‘p ishlatilishi tushiniladi. Nutqda takrorlanmaydigan so‘z va iboralar qancha ko‘p bo‘lsa, u boy nutq, oz bo‘lsa, kambag‘al nutq xisoblanadi.

Nutq boyligini ko‘rinishlari

1. Leksik – so‘z boyligi
2. Semantik so‘z boyligi

Leksik so‘z boylik o‘qimishli zamonaviy shaxsda 10-12 ming so‘zni tashkil etadi..

Semantik boylik deganda, bir so‘zni boshqa so‘zar bilan bog‘lay olish maxorati tushuniladi. [Mahmudov N,2007;115].

Nutq madaniyatini o‘stirish faqat filologiya sohasidagi ta’limiy- tarbiyaviy ish bo‘lmasdan g‘oyaviy-siyosiy, ma’rifiy ishlarning ham eng muhim tomonlaridan birini tashkil etadi. Shuning uchun ham bu fanni o‘rganish bo‘lajak mutaxassislar uchun zaruriy ehtiyojdir. Bu ehtiyoj notiqlik san’ati sirlarini o‘rganish, adabiy til me’yorlariga rioya qilgan holda to‘g‘ri gapirish va yozish, tilning leksik va grammatik birliklaridan o‘rinli va maqsadga muvofiq foydalana olish san’atini o‘rganish orqali ro‘yobga chiqadi. Shunga qaramasdan, bunday zarurat va ehtiyojlarni qondira oluvchi darslik va o‘quv qo‘llanmalar salmog‘ini va sonini ko‘paytirish maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Qudratov T. Nutq madaniyati asoslari. - Toshkent: O‘qituvchi, (1993).b.377.

2. Begmatov E., Mamatov A. Adabiy norma nazariyasi. 1-2-3- qismlar.- Toshkent, (1997, 1998, 2000). b.197.

3. Ortiqov A. Nutq madaniyati va notiqlik san’ati. Toshkent, (2002). b.77

4. Tojiyev Yo., Hasanova J., Tojimatov H., Yo‘ldosheva O. O‘zbek nutqi madaniyati va uslubiyat asoslari. - Toshkent, (1994, 2006). b.540

5. Mahmudov N. O‘qituvchi nutqi madaniyati. –T: Alisher Navoiy nomidagi milliy kutubxona, (2007). b.115.

Musayeva Sh.I.
Jamoat xavfsizligi universiteti “Tillarni o‘rganish” kafedrasi o‘qituvchisi

KURSANTLARNING MADANIYATLARARO MULOQOT KOMPETENSIYASINI INTERAKTIV METODLAR YORDAMIDA RIVOJLANTIRISH

Annotatsiya. Ushbu maqola kursantlarning madaniyatlararo muloqot kompetensiyasini interaktiv metodlar yordamida rivojlantirish masalalariga bag‘ishlangan bo‘lib, unda kursantlarda kommunikativlikni aynan CLT yondashuviga kiruvchi interaktiv medodlardan foydalanish asoslari misollar bilan yoritib berilgan hamda ingliz tili o‘qitishda ingliz tilini o‘rganuvchilarning madaniyatlararo muloqot kompetensiyasini qanday rivojlantirish, shuningdek ingliz tili o‘qitishning muhim maqsadlarini tushunib yetishni tadqiq qiladi.

Kalit so‘zlar: ingliz tilini o‘qitish, madaniyatlararo muloqot kompetensiya, CLT (communicative language teaching), interaktiv metod, harbiy ta’lim va harbiy pedagogika.

O‘zbekiston Respublikasi ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotini amalga oshirish borasida hal etilishi lozim bo‘lgan ustuvor vazifalarni talab darajada bajarish jadal rivojlantirishga katta ahamiyat berilishi lozim. Bu borada O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847-son Farmonida ta’lim sohasini rivojlantirishga qaratilgan ustuvor vazifalar bilan birga “mustaqil ta’lim soatlari ulushini oshirish, talabalarda mustaqil ta’lim olish tanqidiy va ijodiy fikrlash, tizimli tahlil qilish, tadbirkorlik ko‘nikmalarini shakllantirish, o‘quv jarayonida kompetensiyalarni kuchaytirishga qaratilgan metodika va texnologiyalarni joriy etish, o‘quv jarayonini amaliy ko‘nikmalarni shakllantirishga yo‘naltirish, bu borada o‘quv jarayoniga xalqaro

ta’lim standartlariga asoslangan ilg‘or pedagogik texnologiyalar, o‘quv dasturlari va o‘quv-uslubiy materiallarni keng joriy etish” [1] kabi vazifasi ijrosini ta’minlashda xorijiy tillarni o‘qitishning metodologik asoslarini modernizatsiyalashtirishga ehtiyoj borligini ko‘rsatadi.

Harbiy pedagogik jarayon – bu maxsus tashkil etilgan pedagog bilan kursant-tinglovchi o‘rtasidagi o‘zaro hamkorlikdagi jarayondir. Jarayon ta’limni, tarbiyani va shaxs rivojlanishini o‘z ichiga oladi. Harbiy pedagogikada mustaqil fikrlash – bu fahmlash, anglash, fikr yuritishdan boshlanadi [2]. Harbiy pedagogik jarayon boshqalariga nisbatan maxsus yo‘naltirilgan bo‘lib, pedagog bilan kursant orasidagi muloqot ko‘proq rasmiy tusda tashkil etiladi. Oliy harbiy bilim yurtlarida kursantlarga xorijiy tillarni o‘qitish ham maxsus terminologiyaga asoslangan holda olib boriladi.

Ma’lumotlar shuni ko‘rsatadiki, dars jarayonida an’anaviy metodlar qo‘llanilganda, ta’lim oluvchilarning axborotni eslab qolish ko‘rsatkichining eng yuqori darajasi 30 % ni tashkil etsa, noan’anaviy metodlar qo‘llanilganda esa, ta’lim oluvchining axborotlarni o‘zlashtirish darajasi yanada ortib boradi. Bugungi kunda har bir pedagog dars jarayoniga zamonaviy pedagogik texnologiyalarni tatbiq qilishi ularning oldiga qo‘yilayotgan eng muhim talablardan biridir. Turli interfaol usullardan foydalanish, kursantlarni dars jarayonida faol ishtirokchiga aylanishlariga olib keladi.

Harbiy ta’lim muassasalarida chet tili o‘qitishdan ko‘zlangan amaliy maqsadda kursantlarning bo‘lg‘usi kasblariga oid mutaxassislik mavzularida muloqot qila olish, axborot almashish malakasinigina shakllantirish emas, balki o‘zga til egasining turmush tarzi, madaniyatidan ham xabardor “shaxs” tayyorlash talab etilmoqda. Kursantlarni o‘quv jarayonida faollashtirish va ularda chet tilidagi nutqiy muloqotga nisbatan motivatsiya hosil qilishda zamonaviy metodika didaktik o‘yinlar, muammoli o‘qitish, modulli o‘qitish texnologiyalaridan foydalanishni tavsiya qiladi.

Kursantlarda kommunikativlikni rivojlantirish uchun CLT (Communicative language teaching) yondashuvi asosidagi metodlarni va interaktiv metodlarni dars

jarayoniga tatbiq etishimiz, ulardagi kommunikativ jarayondagi muommolarni oldini olishga tayyorlaydi. CLT yondashuvidan foydalanayotgan o‘qituvchilari sinf mashg‘ulotlarini maqsadli tilda muloqot kompetensiyasini rivojlantirish uchun o‘zlari ishongan narsalarga qarab tanlashlari mumkin. U faoliyat darajasiga qarab farq qiladi hamda hamkorlik, ravonlik va qulaylikni targ‘ib qiladi[3]. Quyidagilar CLT yondashuvining asosiy metodlari hisoblanadi: role play, interviews, group work, information gap, opinion sharing, scavenger hunt, jigsaw, task completion activities, information gathering, information tranfer va boshqalar.

Quyida biz ushbu kommunikativ yondashuv va metodlar orqali kursantlarning madaniyatlararo muloqot kompetensiyasini rivojlantirish uchun misollarni keltirib o‘tamiz.

Role play (rol ijro etish) – ushbu metodda kursantlar turli millat harbiy vakillarining holatiga kirib, uning madaniyati va tilining o‘ziga xos xususiyatlarini saqlab qolishga harakat qiladi, bunda kursantlar mavzu bo‘yicha sahna ko‘rinishlarini ijro etadilar. Teatr taqdimotining bunday shakli aktyorlarning tilida rolga maksimal kirib borish va shuning uchun jiddiy tayyorgarlikni, kitoblar va ommaviy axborot vositalarini izlashni talab qiladi. Biz turli mamlakatlarda harbiy muzokaralarni o‘tkazishning o‘ziga xos xususiyatlariga (xalqaro harbiy hamkorliklar), tashkilotda boshqaruvchining o‘rni (ofitser va kursant o‘rtasidagi dialoglar), katta va kichik bo‘linmalarda strategik rejalashtirishga bag‘ishlangan mashg‘ulotlarda rol o‘ynash o‘yinlaridan foydalanishimiz mumkin. Ushbu topshiriqni bajarish jarayonida nutq faoliyatining 4 tala turi ham amalda ishlatiladi. U ikki bosqichdan iborat bo‘lib, birinchi bosqichda kichik guruhlar tashkil etilib, ularga umumiy “The visit” mavzusidagi turli xil rasmlar ko‘rsatiladi. Rasm bilan birgalikda uni tasvirlash uchun ishlatiladigan so‘z va so‘z birikmalari ham beriladi. Kursantlar o‘z guruhlari bilan dialog tuzadilar. Masalan, har bir kichik guruhga shu kabi rasmlar va foydalanish uchun so‘zlar beriladi.

Visit to the entrance post of military base: Military post, check (something) for something, checking all documents, duty officer at the post, let me check your documents, What is purpose of your coming? The duty will take you to Major Akhmedov. Leave your phone and electronic items in the post. Please note, this is your item packing box number. Please wait, the person you call will come out in 10 minutes. The person you requested did not come today. The person you asked for went on a service trip.





Ikkinchi bosqichda esa har bir guruh o‘zlari tuzgan dialogni sinf oldida rollarga kirib ijro etishadi [4].

Interviews (Suhbat) – bu juftlikda amalga oshiriladigan og‘zaki mashg‘ulot bo‘lib, uning asosiy maqsadi til o‘qitishda kursantlarning o‘zaro kommunikativ munosabatlarini rivojlantirishdir. Ushbu topshiriqni bajarish jarayonida nutq faoliyatining tinglab tushunish va gapirish amallari ishlatiladi. U ikki bosqichdan iborat bo‘lib, birinchi bosqichda juftliklar tashkil qilinadi, ularga umumiy “UN peacekeepers” mavzusida har bir kursantga sherigidan so‘rash uchun bir xil savollar beradi. Kursantlar navbatma-navbat ushbu savollarga javob beradilar[5]. Misol uchun:

Military journalist(interviewer)	Military serviceman
1. Have you take part in UN peacekeeping operations the 1st time? 2. Have you come accross difficulties or any problems with local people?	1. Yes, I have. (or No, it’s second time. Before I have been in Iraq. 2. ..... 3. .....

3. Did you join this organization volutarily? 4. .....?	4. .....

Ushbu faoliyat yuqori darajada tuzilganligi sababli o‘qituvchiga kursantlarning javoblarini diqqat bilan kuzatish imkonini beradi. U hatto grammatika yoki so‘zlarning ishlatilishidagi o‘ziga xos kamchiliklarni ham tekshirish imkonini beradi, shu bilan birga, birinchi navbatda, kommunikativ faoliyat bo‘lib, kursantlarga muloqotni tashkil etishda ko‘nikma hosil qilishga yordam beradi. Ayniqsa, til bilish darajasi past bo‘lgan kursantlar bilan qo‘llanilishi kerak bo‘lgan faoliyatdir, chunki u quyi darajadagi kursantlar uchun eng foydali hisoblanadi. Bilim darajasi yuqori bo‘lgan kursantlar bilan ishlaganda esa, ularga faqat suhbat mavzusi beriladi. Ular esa savol-javobni o‘zlari mustaqil tashkil etadilar.

Group work (guruhda ishlash) – bu hamkorlikdagi faoliyat bo‘lib, uning maqsadi kattaroq guruh sharoitida til o‘qitishda muloqotni rivojlantirishdir. Ushbu topshiriqni bajarish jarayonida nutq faoliyatining tinglab tushunish, yozish, o‘qish va gapirish amallari ishlatiladi. U uch bosqichdan iborat bo‘lib, birinchi bosqichda sinf ikkita 6 kishidan ko‘p bo‘lmagan guruhga bo‘linadi, har bir guruh a’zosining bajaradigan vazifasi bo‘lishi shart. Guruhning har bir a’zosi o‘ziga yuklangan vazifani bajarish uchun belgilangan vaqtni oladi. Guruh a’zolari topilgan ma’lumotlarni bir-birlari bilan muhokama qiladilar va topshiriqni bajarish uchun barchasini birlashtiradilar. Ikkala guruhga ham umumiy bir xil “Military organization structure” mavzusida loyiha ishi tayyorlash topshiriladi. Ikkinchi bosqichda guruhlar loyiha ishini tayyorlashadi, uchinchi bosqichda ular o‘zlari tayyorlagan loyiha ishini taqdim etadi hamda o‘xshash va farqli tomonlar muhokama qilinadi. Misol uchun: “The structure of Public safety university” mavzusida universitet boshqaruv tizimi strukturasi loyihasi kursantlar o‘zlariga ma’qul tartibda tuzib tushuntirib berishlari mumkin. Ushbu raqamlangan strukturani har biriga alohida ta’rif berib o‘tadi[6]. Masalan, 04 - He’s the 4th

deputy of commandant of University and he is responsible for enlightenment and spirituality works.



Kursantlardan faqat bitta ma’lumotga e’tibor qaratish so‘raladi, bu ularning ushbu ma’lumotni tushunishini oshiradi. Yaxshiroq tushunish guruhning qolgan a’zolari bilan yaxshi muloqotga olib keladi, bu esa kursantlarning til o‘rganishda kommunikativ qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi. Ushbu jarayonda o‘qituvchi har bir kursantning guruh harakatlariga teng hissa qo‘shayotganini kuzatishi kerak. Kursantlar teng hissa qo‘shishlari va faoliyatdan teng foyda olishlari uchun mashg‘ulotni yaxshi loyihalash uchun yaxshi o‘qituvchi kerak bo‘ladi.

Information gap (axborot bo‘shlig‘i) – bu hamkorlikdagi faoliyat bo‘lib, uning maqsadi kursantlar uchun ilgari ularga noma’lum bo‘lgan ma’lumotlarni til o‘qitishda samarali uslubda o‘zlashtirishdir. Ushbu topshiriqni bajarish jarayonida nutq faoliyatining tinglab tushunish, yozish, o‘qish va gapirish amallari ishlatiladi. U to‘rt bosqichdan iborat bo‘lib, birinchi bosqichda sinf juftliklarga bo‘linadi, har bir juftlikdagi bir sherik A kursant, ikkinchisi esa B kursant bo‘ladi. Ikkinchi bosqichda A va B kursantlarning barchasiga ikki ustunli jadvaldan iborat tarqatma material beriladi. A kursantning ish jadvalidagi bo‘sh bo‘lgan katakchalar B kursantda to‘ldiriladi. B kursantning ish jadvalida ham bo‘sh katakchalar mavjud, ammo ular A kursantda to‘ldirilgan. Keyingi bosqichda esa kursantlar bir-birlarining jadvallarini to‘ldirish uchun ikkalasida yetishmayotgan ma’lumotlarni bir-birlaridan so‘rash va taqdim etish uchun birgalikda ishlashi kerak.

Axborot bo‘shlig‘i faoliyatini yakunlash kursantlarning til o‘rganishdagi noma’lum ma’lumotlar haqida muloqot qilish qobiliyatini yaxshilaydi. Bu qobiliyatlar to‘g‘ridan-to‘g‘ri ko‘plab haqiqiy hayotda sodir bo‘ladigan suhbatlarda qo‘llaniladi, bu yerda maqsad yangi ma’lumotni topish yoki shunchaki

ma’lumot almashishdir. O‘qituvchilar o‘z kursantlari ushbu faoliyat uchun samarali muloqot qilishga tayyor bo‘lishlari kerakligini e’tibordan chetda qoldirmasliklari kerak. Ular ma’lum lug‘at so‘zlarini, grammatikaning ma‘lum tuzilmalarini va hokazolarni bilishlari kerak. Agar kursantlar topshirilgan vazifaga yaxshi tayyorlanmagan bo‘lsa, ular samarali muloqot qila olmaydi.

Misol uchun: “Great military leaders” [7].

Cadet A	**Cadet B**
1.Amir Temur was born in ……..	1.Amir Temur was born in Shakhrisabz.
2.He had 4 sons.	2.He had …….. sons.
3.George Smith Patton was ….general.	3. George Smith Patton was American general.
4.Alexander Suvorov was Russian Field Marshal.	4.Alexander …….. was Russian Field Marshal.
5.George Washington lived in ….-1799.	5.George Washington lived in 1732-1799.
6.Ulugbek was Amir Temur’s grandson.	6.Ulugbek was Amir Temur’s …….

Kursantlar o‘zlaridagi bo‘sh ma’lumotlarni to‘ldirish uchun o‘zaro muloqotga kirishadi va savollarga javob olib, bo‘shliqlarni to‘ldiradi.

Cadet A: Where was he born?

Cadet B: He was born in Shakhrisabz.

Cadet A: How many sons did he have?

Cadet B: Four.

Opinion sharing (fikr almashish) – mazmunga asoslangan faoliyat bo‘lib, ushbu metodning maqsadi kursantlarning suhbatlashish ko‘nikmalarini shakllantirish, shu bilan birga, ular qiziqtirgan narsa haqida gapirishdir. Ushbu topshiriqni bajarish jarayonida nutq faoliyatining asosan tinglab tushunish va

gapirish amallari ishlatiladi. U ikki bosqichdan iborat bo‘lib, birinchi bosqichda sinf ikkita 4 kishidan ko‘p bo‘lmagan guruhga yoki juftlikka bo‘linadi. O‘qituvchi mavzu bilan tanishtiradi va kursantlardan mavzu bo‘yicha o‘z fikrlarini mulohaza qilishlarini so‘raydi. (Masalan, Military uniforms, ranks, NATO school...) Kursantlar juftlik yoki kichik guruhlarda suhbatlashadilar, mavzu bo‘yicha o‘z fikrlarini muhokama qiladilar. Fikr almashish ko‘proq introvert kursantlarni ochish va o‘z fikrlari bilan bo‘lishish uchun ajoyib usuldir. Agar kursant biror mavzu bo‘yicha kuchli fikrga ega bo‘lsa, u o‘z fikrlarini bildiradi va baham ko‘radi. Ushbu metodni qo‘llash jarayonida kursantlar o‘rtasida o‘zaro hurmat bo‘lishi kerak, chunki agar kursant o‘z fikrini o‘qituvchi yoki tengdoshlari tomonidan hurmat qilinishini his qilmasa, u holda ular o‘zlarini erkin his etishmaydi va fikrini ochiq bayon etolmaydi va ular ushbu faoliyatdan kommunikativ foyda olmaydilar.

Yetuk ofitser kadrlarni tayyorlashda amaliy mashg‘ulotlarda kommunikativ metodning tarmoqlari bo‘lgan – loyihalash, masofaviy ta’lim, aqliy hujum, guruhli fikrlash, galereya, rotatsiya, dumaloq stol, Keys study, Jigsaw kabi interfaol usullardan foydalanish, kichik guruh musobaqalari, internet yangiliklari va ilg‘or pedagogik texnologiyalarni qo‘llash maqsadga muvofiqdir[8]. Kursantlarning muloqot jarayonidagi qiyinchiliklarini bartaraf etish uchun taklif etilayotgan yechimlarni harbiy ta’lim o‘quv jarayoniga kiritilishi maqsadga muvofiq bo‘ladi va bo‘lajak ofitserlarni xalqaro harbiy xizmat jarayoniga tayyorlashga hamda ularni duch kelishi mumkin bo‘lgan bu kabi muammolarni hal etishga ko‘mak beradi. Chet tilida o‘qitish jarayoni o‘zga tilda ijtimoiy-madaniy kommunikatsiyani shakllantirish metodikasi asosida amalga oshiriladi va bu kursantlardagi kommunikativ ko‘nikmalar darajasining oshishiga, chet tilini o‘rganishga qiziqishning ortishiga, madaniyatlararo muloqotga tayyor bo‘lishiga yordam beradi.

Xulosa o‘rnida shuni aytishimiz mumkinki, mahalliy tillar bilan muvaffaqiyatli muloqot qilish uchun xorijiy tillarni o‘rganayotgan kursantdan ma’lum darajadagi bilimlarni talab qilishi, tilni faqatgina muloqot qilish vositasi sifatida o‘rganmasdan, ular o‘zaro muloqot qilishlari mumkin bo‘lgan odamlarning

fikrlash tarzini tushunish uchun foydalanishni taqozo etadi. Shuning uchun kursantlarni zarur bilimlarga ega bo‘lishlari jarayonida va ayni paytda ular o‘rganayotgan tilning mamlakat madaniyati bilan yaxshi tanish bo‘lishlari uchun xorijiy tilni chuqurroq va puxtaroq o‘zlashtirishlari lozim. Asosiy bilimlarning mavjudligi va ularni to‘g‘ri ishlatish qobiliyati madaniyatlararo muloqot mahorati shakllanishining belgisidir. Ya’ni, madaniyatlararo muloqot kompetensiyasini rivojlantirish uchun kursantlardagi qobiliyatlarni inobatga olgan holda amalga oshirish yaxshi natija beradi. Hamda muloqot maqsadini to‘g‘ri tanlash va vaziyatga qarab til imkoniyatlaridan to‘g‘ri foydalanishni tashkil etish lozim deb o‘ylaymiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida. PF-5847-son. 08.10.2019. cer.uz.
2. Mahkamov U., Tilabova N., Tilabova Sh., Pedagogik mahorat. O‘quv qo‘llanma. – T.: TDTU, 2003, - B. 7.
3. Mitchell, Rosamond. Communicative Language Teaching in Practice. Great Britain: Centre for Information on Language Teaching and Research. ISBN 978-0-948003-87-5. 1988. - P. 23–24, 64–68.
4. Sh.I.Musayeva Basics of teaching Foreign languages through intercultural communication competence in military educational institutions. European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences. Vol. 7 No. 12, 2019 ISSN 2056-5852 Progressive Academic Publishing, UK. P. 1192-1196
5. Sh.I.Musayeva Oliy harbiy ta’lim muassasalarida kursantlarning madaniyatlararo muloqot kompetensiyasini chet tili o‘qitish orqali rivojlantirish metodikasini takomillashtirish. “Journal of new century innovations” in all areas international interdisciplinary research journal, Volume-3, Issue-2, aprel, 2022. P. 115-130.
6. Sh.I.Musayeva Developing of intercultural communication competence of the cadets using the "discriminated-tandem" method. In Volume 4, Issue 2 of Web of scientist: International scientific Research Journal (WoS) February 2023. – B. 617-623. ISSN: 2776-0979 SJIF 2023: 6.595 JIF: 7.565. P. 617-623
7. Sh.I.Musayeva “Kommunikativ yondashuv va interaktiv metodlar yordamida kursantlarning madaniyatlararo muloqot kompetensiyasini

rivojlantirish”. Оброзование и наука в XXI веке. Научно-образовательный электрон журнал. Выпуск №18 (2-том) апрель, 2023. B. 94-100.

8. D.Ro‘ziyeva, M.Usmonboyeva. “Interfaol metodlar: mohiyati va qo‘llanilishi”. T-., 2013.33-bet.

Otajanova L.O.

UrDU tayanch doktoranti

TARIXIY KOLORITNI IFODALASHDA METAFORANING USLUBIY FIGURA SIFATIDA TARJIMADA SAQLANISHI

Annotatsiya: Ushbu maqolada “Firdavs ul-iqbol” asarining Y.Bregel tarjimasidagi metaforaning uslubiy figura sifatida saqlanish masalalari haqida ma’lumot beriladi.

Kalit so‘zlar: tarjima, tarixiy kolorit, tarjima usullari, analogiya va uslubiy figura.

Badiiy matn tarjimasi tarjimonning nafaqat lingvistik bilimini, balki tarjimonning asliyatdagi badiiy-estetik go‘zallikni tarjima tilida ham muvaffaqiyatli qayta yaratish mahoratini aks ettiruvchi omil hisoblanadi. Kundalik nutqimizda metafora, metonimiya, o‘xshatish, sinekdoxa, giperbola kabi troplar ko‘p uchrasada, ko‘pchilik ular o‘rtasidagi farqni anglay olmaydi. Ammo “ritoriklar va faylasuflar tilning badiiy xususiyatlariga qiziqqanliklari uchun ular metaforani majoziy ma’noning asosiy qismi deb bilishgan” [1,11]. Chunki, nutq figuralarining umumiy konfiguratsiyasida har bir uslubiy figura va troplarning tarjimadagi o‘rni haqida aniq bir to‘xtamga kelinmagan.

Narsa-buyum, voqea va hodisalar o‘rtasidagi o‘zaro o‘xshashlikka asoslangan ma’no ko‘chishiga *metafora* deyiladi. Metafora ko‘chma ma’no hosil qilishning eng keng tarqalgan usullaridan biri bo‘lib, mumtoz adabiyotshunosligimizda *istiora* deb yuritilgan. Metaforaning ikki turini farqlash lozim: lingvistik metafora va xususiy-muallif metaforalari [10, 128]. Lingvistik metaforalar predmetning

asosiy nomlari sifatida ifodalanadigan uslubiy figuralar sanaladi. Xususiy-muallif metaforalari muallif tomonidan yaratiladi va asardagi qahramonlar nutqini ta’sirchan va voqealarni obrazli tasvirlashga xizmat qiladi. “Firdavs ul-iqbol” asarida keltirirlgan metaforalarni badiiy, ya’ni xususiy-muallif metaforalari sifatida tahlil qilishni maqsad qildik.

Metaforaning tarjima xususiyatlariga diqqatimizni qaratadigan bo‘lsak, bu borada turli fikr va nazariyalar taklif qilingan:

— metaforalar tarjima qilinmaydigan birliklar; [4, 17]

— metaforalar to‘laligicha tarjima qilinadi, ya’ni umuman olganda ular boshqa birliklardan farqsiz tarjima qilinadi; [2, 140]

— metaforalarni tarjima qilish mumkin, biroq ular tarjima jarayonida sezilarli darajada nomuvofiqlik keltirib chiqaradi; [8, 73]

Tarjimashunos K.Meyson uslubiy figura va troplar tarjimasiga oid tadqiqotlarida metafora ko‘chimini tarjima qilishga oid masala – uning tabiati bilan emas, balki asliyat va tarjima tillari o‘rtasidagi madaniy farqlarga bog‘liqligini eslatib, ushbu trop tarjimaning asosiy muammolaridan biri sifatida ko‘rilishi kerakligini ta’kidlaydi [2,140]. Asliyatdagi metaforani to‘g‘ri anglab etmasdan tarjima qilish uni noto‘g‘ri talqin qilishga olib keladi. Tarjimashunos M.L.Larson uslubiy troplarning tarjimasi sohasiga oid tadqiqotlarida metafora tarjimasining murakkabligi quyidagi sabablarga bog‘liq deb ta’kidlanadi:

– metafora tropida keltirilgan obraz tarjima tilida anglanmaydi;

– metaforada ifodalangan mavzu aniq tushuntirilmaydi;

– o‘xshashlik ochiq ifoda etilmaydi yoki anglash qiyin kechadi;

– o‘xshashlik madaniyatlar kesishuvida turlicha talqin qilinishi mumkin;

– asliyatdagi mavjud metaforalarni tarjima tilidagi metaforalar bilan qiyoslashning imkoni yo‘qligi;

– har bir tildagi metaforalar ishlatilishi va Shuningdek, yaratilishi jihatidan o‘ziga xos farqlarga ega.

Uslubiy figuralar tarjimasida K. Shafner tomonidan taklif qilingan metafora tarjimasi jarayonida qo‘llaniladigan asosiy uchta strategiyani keltirish o‘rinli deb

hisoblaymiz: “asliyatdagi metaforani so‘zma-so‘z tarjima qilish, metaforani tarjima tilidagi boshqa metafora bilan o‘girish, metaforaning ma’nosini tarjimada ifodalashdan iborat” [5, 49]. Tarixiy asardagi troplar tarjimasiga e’tibor qaratadigan bo‘lsak, K.Shafner taklif qilgan usullari tarjimon tomonidan qo‘llanilgan strategiyalar sanaladi.

Turli xalqlarning madaniy hayotida tarixan qaror topgan adabiy-uslubiy mushtaraklik mavjudligi o‘zaro tarjimachilik ishida o‘ng‘aylik tug‘dirishi tabiiy holdir. [9, 43]Ingliz tilida *olov* va *issiqlik* bilan bog‘liq mazmundagi leksik birliklar har doim *qahr, g‘azab* ma’nosida keladi. Tarjimada keltirilgan *flare* so‘zini *qorong‘ulikda yorqin yorug‘likning ko‘rinishi* mazmunini anglatadi. Bu so‘zning ishaltilish qoidalariga e’tibor qaratadigan bo‘lsak, manbalarda quyidagicha izohlanadi: “If you say **tempers flared,** you mean that people became angry with each other” [3, 28]. Bundan kelib chiqadiki, asliyatdagi *noirayi g‘azabi podshohiy mirvahai saxati ilohiy bila ishtiol topib* (FI, 475) tarjima tilida “The *flame of khan’s wrath flared up*,” (FI, 521) tarzida ifodalangan. Insoniyat tabiatan turli psixofiziologik holatlarni boshdan kechiradi va tillardagi *g‘azab* olovning yonishiga qiyoslanishi asliyat va reseptor madaniyatida mavjudligi hamda tarjima birligi yordamida to‘g‘ri muqobil tanlanishi metafora tropining tarjimada to‘liq saqlanishiga sabab bo‘ldi. Stilistik jihatdan diqqat qiladigan bo‘lsak, *g‘azabi podshohiy* va *flame of khan’s wrath* badiiy metaforalari to‘liq muvofiqlik asosida almashtirilgan deb hisoblasak to‘g‘ri bo‘ladi.

Tahlilga qaratilgan misolimizdagi uslubiy figura badiiy metaforalar turiga mansubdir:

“Vah ki ul *orazi gulgun*ga ko‘ngullar edi zore,

Qilmish afsurda ani gardi siyax rangu qizil qon.

Vah ki ul *kokuli mishkin* ki jahon erdi asiri,

Tufroq uzra ani qilmish xasu xoshok parishon.” (FI, 107)

Ushbu keltirilgan satrlarda muarrix metaforaning go‘zal namunalarini yaratadi. Mumtoz adabiyotda mashuqaning go‘zal chehrasi *orazi gulgun* va yorning qora sochlari *kokuli mishkin* tarzida mubolag‘ali qiyoslanishi an’ana

sifatida ishq mavzusida takrorlanuvchi majozlar sanaladi. Reseptor tilida mashuqaning chehrasi *rosy (gülgün) cheek* shaklida badiiy analog orqali tarjima qilinib ifodalanganligi ushbu madaniyatda go‘zal va sog‘lom yanoq mazmunida talqin qilinadi. Ingliz tilining izohli lug‘atiga yuzlanadigan bo‘lsak, *rosy-cheeked* lingvistik birligi “**1**. Having ruddy or rose-coloured cheeks; rosy-cheeked” shaklida izohlangan va ingliz sheriyatida ham bu tropdan foydalanilgan. 1833 yilda Lord A.Tennison tomonidan yaratilgan *Miller's Daughter* asaridan misol keltirilgan: “*Rosecheekt, roselipt,* half-sly, half shy, You would, and would not, little one”. [7, 109] Shuningdek, tarjima tilidagi *rosy cheek* asosiga qurilgan metafora tabiatning estetik go‘zalligi istifodasi bilan birga yuzdagi qizil toshmalarni ham anglatishi ma’lum. Butun dunyoni asir aylagan *kokuli mishkin* obrazi esa *black sidelock* birikmasi orqali tarjima qilinadi:

“Alas, that this *rosy (gülgün) cheek* for which hearts (köngül) sighed
Is soiled by black dust and red blood.
Alas that this *black sidelock* which held the [whole] world prisoner
Lies dishevelled on the ground amidst straw and dust.” (FI, 72)

Munis va Ogahiy tarixiy asarlaridagi nazmiy va nasriy satrlar bir vaqtning o‘zida bir necha badiiy san’atlarni o‘z ichiga oladi. Xususan, “Firdavs ul-iqbol” asarida muarrix asarda harbiy mojarolardan qiynalgan xalqni mubolag‘ali tasvirlashda metaforadan ham foydalanganligini guvohi bo‘lamiz:

“aksar benavolarning non o‘rniga g‘izosi ranku mehnat va suv o‘rniga *ashki hasrat* bo‘lub,” (FI,) \\ “… so that for most of them the misery of war replaced their bread, and *the tears of grief* replaced water.” (FI, 515)

Asliyatdagi *ashki hasrat* metaforik birligi tarjima matnida *the tears of grief* birikmasi bilan ifodalanishi milliy madaniyatning tarjimada saqlanishini ifodalab qolmay, balki tarjimada ham aynan shu uslubiy figura sifatida qayta yaratilishiga olib kelgan. Bu esa tarjimon poetikasining yuqori baholanishiga yana bir sabablarda biri sifatida qabul qilinadi. Navbatdagi misolimiz ham muallif maqsadi va asar lingvopoetikasining tarjimada qayta yaratilganligining ajoyib namunasi hisoblanadi:

“… ikki ming turkmang‘a *teg‘ suvi* bila *ajal sharbati* ichurdi” (FI, 91) \\ “two thousand Turkmen drink *the sharbat of death* with *the sheen of the sword*.” (FI, 46)

Asliyatda keltirilgan *teg‘ suvi* metaforik birikmasi qilichning yaltiroqligiga nisbatan *“obdor”*, ya’ni *suvli dengiz* kabi nisbatlar ishlatiladi. Qiziq jihati shuki, geneologik jihatdan bir-biridan farqlanuvchi asliyat va tarjima tillarida qurolga berilgan nisbat ifodasidagi o‘xshashlikning bir xilligi manbalarda ham bir xil izohlanadi: “**d.** *absol*. **the sheen**: the bright weapon”.[7,215] Shuningdek, dushman askarlarining *teg‘ suvi* bilan *ajal sharbati* ichishi metafora uslubiy figurasidagi sharbat komponenti ingliz tilining izohli lug‘atida berilishicha, sharbat birligi quyidagicha: “**1. a.** A cooling drink of the East, made of fruit juice and water sweetened, often cooled with snow” izohlangan va lug‘atda keltirilgan misollardan *sharbat* so‘zi ingliz tiliga bir necha asrlar oldin kirib kelganligining guvohi bo‘lamiz: “**1675,** Covel in *Early Voy. Levant* (Hakl. Soc.) 239 We.. were severall times treated with sherbert of lemmons” [7, 244].

Keyingi o‘rinlarda muarrix tomonidan keltirilgan *ajal sharbati* metaforasi *drink called death* tarzida kalka usuli orqali tarjima qilinganligini uchratamiz. Ko‘chma ma’no kasb etgan uslubiy figura tarjimasi o‘z navbatida ohangdorlik asosida tarjimaga musiqiylik kasb etgan. Tarjima matnida tarjimon turli usullardan foydalanib, metaforik birlikni takrorsiz tarjima qilishga qaror qilgan va tarjimon o‘z mahoratidan unumli foydalangan:

“Barcha jon o‘lguvchidirsha” fahvosi bila *ajal sharbati* noguvorin lojur’a chekti.” (FI, 92) \\ “according to the words “Every soul shall taste of death”, drank to the dregs the unpalatable *drink called death*” (FI, 47)

Tarixiy asarda, Shuningdek, **tarixiy shaxslarning** his-tuyg‘ularini ta’sirchan, yorqin bo‘yoqlarda, aniq va ixcham ifodalashni maqsad qilgan muarrix metaforalardan ham mohirona foydalangan. **Ko‘pchilik holatlarda inson xatti-harakati havvon, qush va boshqa jonzotlar orqali tushuntiriladi. Kundalik nutqda kimnidir tulkiga o‘xshatish orqali o‘sha shaxsning ayyorligi, ustamon va hiylagarligiga urg‘u beriladi. Tahlilga qaratilgan asarda ham tarixiy**

shaxslarning xatti-harakati va fe’l-atvori shunday ko‘chimlar orqali ifodalanganligiga guvoh bo‘lamiz:

Didi ki chi kard *Ashrafi xar*

U mazlumi burdu Jonibek zar. (FI, 76)

Ingliz va o‘zbek tillarida *eshak* komponentli metaforalarining aksariyati eshakning xatti-harakati va odatlarga asoslanadi hamda bu hayvon bilan bog‘liq metaforalarning lingvokulturalogik jihati ikki tilda ham *ahmoqlik* stereotipiga olib keladi. Asliyatda ifodalangan *Ashrafi xar* birikmasi ham metafora sifatida keltirilib, tarjimada ham aynan shu ma’no saqlangan. Ingliz tilida *mule* va *ass* so‘zlari odamning aqlsizligi va qaysarligini obrazli tasvirlash imkoniyatini yaratadi. Tarjimon asliyatdagi *Ashrafi xar* til birligini tarjima tilidagi *ass Ashraf* muqobili orqali berish bilan ko‘chimning to‘liq saqlanishiga va tarjimaning adekvatligiga erishgan:

“Someone says: What did that *ass Ashraf* do? He brought tyranny, and Janibek brought gold.” (FI, 50)

Demak, Y.Bregel tarixiy asardagi metaforalar ifodalagan sharqona go‘zallikni tarjima jarayonida saqlab qolishning uddasidan chiqqan va asliyatdagi metaforani tarjima tilidagi adekvat muqobili yordamida tarjimada saqlashga harakat qilgan. Tarixiy asar mutarjimdan nafaqat asar tilini, balki o‘sha xalq madaniyati, va e’tiqodidan ham xabardor bo‘lishni talab qiladi. Mumtoz adabiyot an’analaridan etarli boxabar Y.Bregel tarjimada insonni komillikka undovchi da’vatlarni, go‘zal poetik lavha va manzaralarni ingliz tilida qayta yaratishga muvaffaq bo‘ldi. Tarjimonning asar tarjimasi nashridagi quyidagi xulosalarini fikrimiz tasdig‘i sifatida keltirishni joiz deb bildik: “Consequently, I have tried to give the reader at least some idea of the stylistic flavor of the original, translating many typical metaphoric expressions (such as “put the foot of arrogance on the carpet of rebellion”), parallel synonymic constructions and even certain longer florid passages without abridgement or with minimal abridgement”. [6, lx] Inglizzabon kitobxon asar tarjimasi mutolaasi jarayonida asliyatdagi xonlik tarixini mumtoz

an’analar asosida ko‘z o‘ngida yaqqol gavdalantira olishiga hech qanday shubhamiz yo‘q deya olamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Al-Sharafi, A. Textual metonymy: A semiotic Approach. – London: Palgrave Macmillan. 2004. – P.11.

2. Mason K. Metaphor and Translation. Babel 28 (3): 1982. – PP. 140–149.

3. Michael McCarthy. English Collocation in Use. – Cambridge, 2008. – P.28

4. Nida, E. A. Towards a science of translating, with special reference to principles and procedures involved in bible translating. Leiden: E. J. Brill, 1964; Dagut, M. Can metaphor be translated? Babel 12 (1),1976. P. 21 - 33.

5. Schäffner C. A roof is an umbrella: metaphor, culture and translation. Identity and Difference – Translation Shaping Culture. – Bern: Peter Lang AG, 2005. – P. 49-78.

6. Shir Muhammad Mirab Munis and Muhammad Riza Mirab Agahi, Firdavs al iqbal History of Khorezm. Translated from Chaghatay and Annotated by Yuri Bregel, Leiden Boston, 1999. – P. Lx.

7. The Oxford English Dictionary, Volume 14,15. – Oxford: Clarendon Press, 1989.

8. Van den Broeck, R. The limits of translatability exemplified by metaphor translation. Poetics Today 2, 1981. – P. 73–87.

9. Саломов Ғ. Таржима ташвишлари (Масъул муҳаррир: М.Қўшжонов). – Т.: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1983. - Б.43.

10. Йўлдошев М., Муҳамедова С., Сапарниязова М. Матн лингвистикаси ўқув қўлланма. – Тошкент: «Ишончли ҳамкор», 2021. – Б. 128.

Рахматуллаева Бахора Миржахон кизи курсант 3 курса
Научный руководитель
Ахмедова Нилуфар Яхияевна
Таможенный институт Таможенного комитета при Министерстве экономики и финансов Республики Узбекистан, г.Ташкент, Узбекистан
nilufar.axmedova.77@mail.ru
rahmatullaevabahora6@gmail.com

РУССКИЙ ЯЗЫК И ЕГО РОЛЬ В ТАМОЖЕННОЙ СЛУЖБЕ

Аннотация. В статье рассматривается роль русского языка в современном мире, а также роль русского языка в сфере высшего и среднего образования. Рассмотрены исторические аспекты возникновения русского языка в нашей стране. Также рассмотрены тема реализации международного образовательного проекта, направленного на повышение квалификации знания русского языка курсантов Таможенного института.

Ключевые слова: русский язык, образование (высшее и среднее), государственный язык, коммуникация, профессиональная деятельность, таможенная служба.

«Русский язык в умелых руках и опытных устах красив, певуч, выразителен, гибок, послушен, ловок и вместителен».

А.И. Куприн

Русский язык издревле являлся и остается языком межнационального общения, посредством которого преодолевается языковой барьер между представителями разных этносов внутри одного многонационального государства, а взаимопроникновение национальных культур только способствует его укреплению и обогащению.

Русский язык принадлежит сегодня к наиболее распространенным языкам мира. По числу говорящих на нем, он занимает пятое место в мире после китайского, хинди (вместе с близким ему урду), английского и испанского языков. По другим оценочным данным, русский язык по числу

владеющих им (свыше 500 млн человек) занимает в мире третье место после китайского (свыше 1 млрд) и английского (750 млн). В той или иной мере русский язык изучают в вузах и школах более, чем в 140 странах мира.

Русский язык на территории современного Узбекистана получил распространение после присоединения Ташкента в 1860-х годах и с тех пор прошёл длительный этап развития и становления, сопровождавшийся неоднократным изменением своего социально-правового статуса. В советское время русский язык перестал быть исключительно родным языком этнического русского населения республики: в качестве родного его восприняли многие ташкентцы и другие национальные меньшинства Узбекистана: украинцы, немцы, корейцы, татары, казахи, различные метисы и прочие. На русском языке между собой общаются русскоязычные национальности, узбеки и таджики. Вторым языком он стал и для большинства городских, в особенности, ташкентских узбеков. Например: 1930-е по 1989 год: русский и узбекский языки имели статус официальных. В советское время в республике сложились полные вертикали образования на узбекском и русском, а также системы школьного образования на казахском, каракалпакском, таджикском, киргизском и туркменском языках. Эта ситуация сохраняется до наших дней, хотя пропорциональное представительство языков изменилось за годы независимости.

В 1860-ом по 1930-е годы русский язык считался официальным языком делопроизводства и образования в русских школах.

В 1930-ом по 1989 год русский и узбекский языки получают статус официальных языков на территории бывшего Советского Союза. В советское время в республике сложились полные вертикали образования на узбекском и русском [2]. На 2016 год, в редакции закона «О государственном языке Республики Узбекистан», русский язык не имеет официального статуса межнационального языка общения. Однако употребление русского языка упоминается в статье 12, которая предусматривает, что по требованию

граждан текст оформленного документа нотариусом или лицом, исполняющим нотариальные действия, выдаётся на русском языке **[1, 50].** Данная ситуация сохраняется до наших дней несмотря на то, что государственным языком является узбекский язык и он доминирует в сфере образования, но при этом обучение на русском языке также востребовано, порой в школах, например, в столице страны, в городе Самарканде и в Самаркандском районе русский язык пользуется спросом больше, чем в других областях республики [2]. Образования (высшее и среднее) на территории Республики Узбекистан развивается на основе двух языков: государственного – узбекского языка и языка межнационального общения – русского.

В 2020 - 2021 годах в Узбекистане русский язык получил больше привилегий, чем как когда-либо, помимо филиалов российских вузов, открылись несколько новых институтов, в которых функционируют факультеты, в которых обучение ведется на русском

Русский язык на сегодняшний день набирает обороты, что даёт возможность улучшить качество преподавания данного языка в сфере высшего и среднего образования. Социальная значимость русского языка в республике высока. В Узбекистане для школ с узбекским языком обучения издаются учебники по русскому языку, в которых использована методика изучения русского языка как иностранного. В Ташкенте между Министерством народного образования Узбекистана и Министерством просвещения Российской Федерации подписан меморандум о сотрудничестве, в рамках которого организован совместный образовательный проект под названием "Класс!" ("Зўр!" по-узбекски), который направлен на улучшение методики преподавания русского языка как иностранного. На базе ташкентского Института переподготовки и повышения квалификации руководителей и специалистов системы народного образования имени А.Авлони российские специалисты с 2020 года участвуют в переподготовке местных учителей и методистов.

Подразумевается, что программа охватит порядка 30 тысяч местных педагогов, это позволит вывести обучение русскому и предметов на русском языке на новый качественный уровень [3].

Разговорным русским языком в Узбекистане владеет от 50% до 80% населения, количество русских групп в колледжах и лицеях - 50% и 90% соответственно. Русский язык является обязательным к изучению во всех ВУЗах страны.

Изучение русского языка было неотъемлемой частью обязательного образования в стране. Он преподается как иностранный, начиная с начальной школы и заканчивая средней школой. Кроме того, в Узбекистане существует более 88 школ (с более чем 630 тысячами учеников), где вся учебная программа преподается на русском языке. И в большинстве государственных школ есть русскоязычные группы. Многие родители желают, чтобы их дети ходили в русские школы или группы.

Многие, включая и профессоров ведущих ВУЗов, пришли к выводу, что при изучении двух языков: одного в семье, другого – в школе, человеку проще удастся освоить новые. Во всех учебных заведениях – ВУЗах, детских садах обязательно есть русские группы и классы с русским языком обучения. К примеру, в Национальном университете Узбекистана им. Мирзо Улугбека есть даже направление обучения «Русская филология». В Самаркандском государственном университете сегодня функционирует целый факультет русской филологии: если он начинал работу с 25 человек, то сегодня на факультете (вместе с магистрами) обучается около 300 человек. Причем готовят не только русистов – преподавателей русского языка, т.к. спрос на них очень большой, но и переводчиков [4].

В системе образования учебный предмет “Русский язык“ занимает особое место: он является не только объектом изучения, но и средством обучения. Русский язык обеспечивает развитие интеллектуальных и творческих способностей человека, развивает абстрактное мышление, память и воображение, формирует навыки самостоятельной учебной деятельности,

самообразования и самореализации личности. Именно поэтому основные цели изучения предмета – языковое развитие личности, совершенствование умений и навыков, обеспечивающих свободное владение русским литературным языком в разных сферах и ситуациях его использования. Будучи формой хранения и усвоения различных знаний, русский язык неразрывно связан со всеми другими дисциплинами и влияет на качество усвоения всех других предметов, а в перспективе способствует овладению будущей профессией. Молодые специалисты должны владеть в совершенстве всеми видами речевой деятельности, уметь квалифицированно вести беседу, в общем, чувствовать себя вполне уверенно как в бытовой, так и в деловой сферах общения.

Для успеха в профессиональной деятельности современному специалисту необходимо в совершенстве владеть навыками культуры речи и обладать лингвистической, коммуникативной и поведенческой компетенциями в профессиональном общении.

Для этого необходимы следующие качества:

– знание норм литературного языка и устойчивые навыки их применения в речи;

– умение следить за точностью, логичностью и выразительностью речи;

–владение профессиональной терминологией;

–владение стилем профессиональной речи;

–умение определять цель и понимать ситуацию общения;

– умение создавать и поддерживать благожелательную атмосферу общения;

– умение направлять диалог в соответствии с целями профессиональной деятельности;

– знание этикета и чёткость выполнения его правил.

Таким образом, знание русского языка, то есть владение лингвистической, коммуникативной компетенциями – это необходимый инструмент, ключ к достижению профессионального успеха личности.

На современном этапе развития нашего государства и таможенной службы владение иностранными языками становится жизненной необходимостью. Взаимодействие национальных таможенных служб стран мира предполагает участие их сотрудников в международных программах, проектах и конференциях, а также в работе различных курсов по подготовке квалифицированных специалистов таможенного дела. Специфика деятельности таможенных органов Республики Узбекистан на приграничных постах, международных аэропортах, железнодорожных вокзалах требует от сотрудников знания иностранных языков для работы с гражданами иностранных государств. Наряду с этим, в практической деятельности таможенных органов используются немало международных документов на русском языке, в том числе международные Конвенции и решения глав правительств государств-участников СНГ [5, 3].

Таможенная служба Республики Узбекистан как часть общей экономической системы, выполняя свои базовые функции государственного администрирования внешнеэкономической деятельности, является самостоятельным социально-экономическим институтом, призванным создавать благоприятные условия для ведения внешней торговли. Таможенный институт Таможенного комитета направлен к подготовке квалифицированного специалиста-таможенника, владеющего иностранным языком в специальной области, способного вести эффективную профессиональную деятельность в иноязычной среде, что требует сформированной профессионально-иноязычной компетентности.

В процессе подготовки специалистов таможенников в Таможенном институте основной акцент делается на дисциплины, формирующие профессиональные знания и умения, а также дисциплинам иностранного языка. Готовность к профессиональной межкультурной коммуникации на иностранном языке является частью общей подготовки специалиста таможенного дела и представляет собой сложное профессионально значимое качество личности, объединяющее: а) психологическую готовность

(направленность на коммуникацию); б) теоретическую готовность (необходимый объём знаний); в) практическую готовность (способность применять полученные знания).

В настоящее время дисциплины таможенного дела преподаются в Таможенном институте на русском и узбекском языках – государственном языке Республики Узбекистан.

Следует также отметить, что в Таможенном институте изучение русского языка будущими специалистами таможенного дела осуществляется в условиях контекстного подхода к обучению. Такой подход предполагает возможность включения средств информационных и коммуникационных технологий в учебный процесс. Ключевую роль играют передача и усвоение информации. Примером такой деятельности при обучении русскому языку с использованием средств информационных и коммуникационных технологий выступает выполнение заданий на усвоение лингвистических знаний: отработка навыков произношения таможенных терминов, запоминание их значений, усвоение грамматических конструкций, свойственных языку будущей профессии.

СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ :

1. Русский язык в мире. Доклад — М. ОЛМА-ПРЕСС, 2003 5-224-04547-9 — стр. 50-53
2. Зинин С.И. Русский язык в Узбекистане. [Электронный ресурс] / Зинин С.И. Режим доступа:http://www.russkie.org/index.php?module=fullitem&id=2955
3. http://www.lex.uz/pages/GetAct.aspx?lact_id=108915
4. РИА Новости. Русский язык и Узбекистан. / Савчук С. Русский язык и Узбекистан. Режим доступа: https://ria.ru/
5. Г.Асилова, М.Давлатова. Русский язык. Учебное пособие.-Т.: 2013.-3 с.

Qarshibayeva Z.Sh.
Cadet of the group-134 of the Academy of the MIA of the Republic of Uzbekistan.

Adviser: Abdusalomov F.A.
Senior teacher-methodologist of the Center for Foreign languages of the Academy of the MIA of the Republic of Uzbekistan

THE IMPORTANCE OF TEACHING ENGLISH TO MILITARY STUDENTS

Annotation: In today`s fast moving world it is vitally important to teach English in every educational institution, especially for students of military establishments. To shed light on the opportunity of learning foreign languages is to cooperate and examine foreign countries` experiences, bring up our legislation system to international level of standards and find new ways and methods of fighting against criminality.

Key words: foreign language, English, military students, reforms, communication, teaching, importance, information.

Language is a mean of communication among members of society that represents the spirit and history of the particular nation and country. There are approximately 7000 languages in the world, among which English is considered as one of the richest as it contains more than 2.5 million words and the most common as it is the official language of several countries.

In the last recent years, radical reforms are being implemented in our country in the sphere of education and several decrees as well as laws were adopted in this framework. Accordingly, our President Shavkat Mirziyoyev emphasized that it is time to set up a new system for learning foreign languages in our country which will be a solid foundation for the future, since we have set for ourselves the goal of building a competitive state, on the onwards, graduates of every school, lyceum,

college and higher educational institution must have a perfect knowledge of at least 2 foreign languages.

The Presidential Decree No.5117 was adopted On 19th May in 2021 "On measures to bring the popularization of foreign languages to a qualitatively new level". As a rational consequence of this legislative document, the Presidential Resolution No.134 "On Approval of the national program on public education" was adopted on May 11, 2022. Therefore, the requirement for teaching foreign languages has become the main criterion of the activity of all educational institutions.

The essential conditions, as well as wide range of opportunities have been created to learn foreign languages, moreover, additional preferences are being introduced to students and professionals of any sphere who acquired foreign languages and obtained various certificates in our country. The payments and extra bonuses are quintessence of this mechanism.

Mahmudkhoja Bekhbudiy, one of the leaders of "Jadid" actions in Turkestan, was thoroughly concerned with the importance of foreign languages, stressing out that "Our youths must master at least 4 languages so that we do not lag behind the world development".

To contemplate on teaching foreign languages especially for military students, the plausible question arises that why every member of modern society generally needs English. The first and foremost reason to acquire foreign languages by military students is to integrate to the whole world in all spheres of the life as it plays crucial role to communicate with the society.

To start with, English is needed in order to acquire high quality knowledge and become skilled professional on any sphere whether it is science, business or liberal arts. It is obvious that more sources of information, including researches, books, articles and scientific investigations are written in this language, which means it is a valuable language for career advancement. Vast majority of academic papers and journals are published in English. Knowing how to read in English

allows one to access the billions of pages of information. Principally, many new solutions of vitally important problems can also be found in English.

